

ERNEST HEMINGUEYNING "CHOL VA DENGIZ" ASARIDAGI BADIY TASVIR VOSITALARI

Qudratova Sug'diyona

Navoiy davlat universiteti Tillar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20390323>

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahon adabiyotining yirik namoyandasi bo'lgan Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz" asaridagi badiiy tasvir vositalari tahlil qilinadi. Badiiy tahlilning asarning g'oyasini ochishdagi ahamiyati chol obrazi orqali namoyon bo'ladi. Asarda qo'llanilgan metafora, jonlantirish, antiteza, o'xshatish kabi vositalarning qahramon ruhiyati va asarning falsafiy mazmunini ochishdagi o'rni ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Ernest Xeminguey, chol, jonlantirish, dengiz, tasvir vositalari, ramz, antiteza, tahlil, metafora, baliq.

Аннотация: В данной статье анализируются художественные средства, использованные в повести Эрнеста Хемингуэя «Старик и море», одном из выдающихся произведений мировой литературы. Значение литературного анализа в раскрытии идеи произведения показано через образ старика. Рассматривается роль таких художественных средств, как метафора, олицетворение, антитеза и сравнение, в раскрытии психологического состояния героя и философского содержания произведения.

Ключевые слова: Эрнест Хемингуэй, старик, олицетворение, море, художественные средства, символ, антитеза, анализ, метафора, рыба.

Abstract: This article analyzes the artistic devices used in Ernest Hemingway's novella The Old Man and the Sea, one of the outstanding works of world literature. The importance of literary analysis in revealing the main idea of the work is demonstrated through the character of the old man. The study examines the role of literary devices such as metaphor, personification, antithesis, and simile in expressing the protagonist's psychological state and the philosophical meaning of the work.

Keywords: Ernest Hemingway, old man, personification, sea, artistic devices, symbol, antithesis, analysis, metaphor, fish.

Jahon adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan Ernest Xeminguey o'zining hech kimnikiga o'xshamaydigan uslubi bilan boshqalardan ajralib turadi. Uning asarlarida uzun va jimjimador so'zlar o'rniga, kam so'zlar orqali chuqur ma'no ifodalash xususiyati yetakchilik qiladi. Yozuvchining "Chol va dengiz" asari aynan ana shunday toifadagi asarlar sirasiga kirib, tashqi tomondan qaraganda, oddiy baliqchi hikoyasidek, biroq uning ifodalayotgan mazmuniga e'tibor qaratilsa, butun bir hayot haqiqati mujassam ekanini ko'ramiz. Mazkur maqolada "Chol va dengiz" asaridagi badiiy tasvir vositalari hamda ularning asar g'oyasini ochishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

"Chol va dengiz" asari 1952-yilda Bagama orollarining Bimini shaharchasida yozilgan bo'lib, kubalik baliqchi Santyago haqida hikoya qiladi. E. Xeminguey 1954-yilda adabiyot bo'yicha Nobel mukofoti bilan taqdirlanadi. Mukofotni olishda ushbu asar asosiy rolni o'ynagani haqida Nobel qo'mitasi shunday deydi: "Hikoya san'atidagi yuksak mahorati, ayniqsa, bu mahoratning "Chol va dengiz" asarida namoyon bo'lgani hamda zamonaviy adabiy uslubga ko'rsatgan ta'siri uchun mukofotlangan".

Badiiy asarni tushunish va uning estetik qiymatini oshirishda tasvir vositalari asosiy omil vazifasini o'taydi. "Chol va dengiz" asarining asl mohiyatini va undagi haqiqatni anglash esa, albatta undagi tasvir vositalarini o'rganishni taqozo etadi. Badiiy asar tasvir vositalari orqali nafaqat boyiydi, balki unda ifodalanayotgan g'oyani anglashda katta ahamiyatga ega.

Yozuvchi o'z mahoratini asarning ilk sahifasidanoq ko'rsatar ekan, chol obrazini tasvirlashda ajoyib o'xshatishlarni qo'llaydi:

"Chol oriqlik va holdan toygan, ensasini chuqur ajinlar tilib o'tgan, betlari esa quyosh nurining tropik dengiz yuzidan aks etib chiqishidan paydo bo'ladigan beozor teri rakining jigarrang dog'lari bilan qoplangan edi.

Dog'lar cho'zilib gardanigacha tushgan, yirik baliqlarni tortib olayotganda, chizimchalar o'yib yuborgan qo'llarida chuqur chandiq izlari ko'rinardi. Ammo bu izlar ichida yangisi yo'q, hammasi ham uzoq suvsizlikdan qaqrab yotgan biyobon darzlari singari ko'hna edi".

Santayago obrazining bu tarzda aniq "chizilishi" uni hayotda mavjud insondan ilhomlanib yaratilgan degan fikrni uyg'otadi. Muallif haqidagi ba'zi manbalarda uning yaqin do'sti baliqchi Gregorio Fuentus Santayagoning hayotdagi prototipi deb qaraladi.

Cholning yuzidagi dog'larga nisbatan "uzoq suvsizlikdan qaqrab yotgan biyobon darzlari singari ko'hna" o'xshatishi qo'llangan. Bu orqali cholning uzoq yillik mehnat bilan to'la hayoti ochib beriladi. Shu bilan birga, falsafiy ma'noda u hayot sinovlaridan o'tgan, juda ko'p qiyinchiliklarni boshdan kechirgan, tajribali inson ekani ham ko'rsatiladi.

Badiiy asarda qo'llaniladigan jonlantirish vositalari (personifikatsiya) insonga xos xususiyatlarni hayvonlar, jonsiz narsalar, tabiat hodisalariga ko'chirish orqali g'oyaviy va hissiy ta'sir kuchaytiriladi. Asarda jonlantirish vositalari ham mohirona qo'llangan bo'lib, u orqali inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar ko'rsatib beriladi:

"Okean gohida shu qadar berahm bo'lar ekan, nima uchun qushlarni mana bu dengiz qaldirg'ochlari singari nozik va shikasta qilib yaratmaganlar. Okean saxiy va go'zal, ammo u goho to'satdan shunday shafqatsiz bo'lib ketadiki, uning ustida oziq ilinjida charx urib sho'ng'ib, ojiz va mungli ovoz bilan bir-birlariga jo'r bo'lib uchgan bu qushlar unga nisbatan benihoya zaif va mo'rt ko'rinadi, deb o'yladi".

Muallif okeanga insonga xos xususiyatlarni berar ekan, uning boshqa jonzorlarga — qushlarga nisbatan berahm va shafqatsiz bo'lishini, ammo shu bilan birga saxiy va go'zal ekanini aytadi. Bu orqali insonning tabiatga bo'lgan munosabati obrazli tarzda ochib beriladi.

Chol dengizda shikastlangan qo'li bilan gaplashishi orqali personifikatsiyaning yana bir namunasi yaratilgan:

"O'lguday tirik notavon bo'la turib ham, har holda, o'zingni yomon tutganing yo'q, — dedi u chap qo'lga".

Mazkur parchadagi qo'lga murojaat orqali qahramonning ruhiy holati va ayni vaqtdagi ichki kechinmalari yanada ta'sirchan tarzda ochib berilgan.

Asar ta'sirchanligini oshirishda antitezalar ham katta ahamiyatga ega. Heminguey o'z asarida antitezalarga alohida e'tibor qaratadi. Bu usul qahramon holatini aniq ifodalashda, uning ruhiyatini ko'rsatishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Avvalo, Santayago obrazining o'zi ham qarama-qarshilikka asoslangan. Ya'ni, chol ancha qarib qolgan, jismonan baquvvat emas, biroq uning ruhiyatidagi matonat va kuch buning aksidir.

Asarda chol Xudoga ishonmasligini aytadi, ammo asar davomida Santayagoning juda ko'p marta unga murojaatlari qahramon ruhiyatidagi qarama-qarshilikni vujudga keltiradi. Shu bilan birga inson fikrlari doim bir xil bo'lmasligi, muntazam o'zgarib borishi tasvirlanadi.

"E, Xudo, o'zing uni bu yoqqa chiqishga majbur qil! –dedi chol. –Surobini to'g'rilash uchun esa, xudoga shukur, yetarli kalavam bor".

Ko'rinadiki, inson o'zi istagan narsani, albatta qila oladi, biroq u o'zini yaratgan kuch oldida doimo o'zligini, hamma vaqt o'zidan qudratli bo'lgan yaratuvchiga muhtoj ekanligi Santyago ruhiyatidagi bu ziddiyat orqali ko'rsatib berilgan.

Badiiy asardagi g'oyani yashirin va shu bilan birga, ta'sirli yoritib berishda metaforaning o'zni beqiyosdir. Muallif asarida borliq, undagi jonotlar inson bilan bir butun ekanini shunday vositalar orqali ko'rsatadi:

"Shamol – bu so'zsiz bizga birodarku-ya, – deb o'yladi u va keyin qo'shib qo'ydi: – darvoqe, har doim ham shunday emas".

"Dengizdan bor-yo'q rizqi ro'zimizni qoqishtirib olayotganimiz va yana o'z birodarlarimizni o'ldirayotganimiz ham yetib ortadi".

Mazkur parchada chol shamol va baliqlarni "birodar" deb atashi metaforani yuzaga keltiradi. Bu orqali inson tabiat bilan bog'liq hamda ular doimo uyg'un holatda ekanini ko'rsatadi.

"Chol va dengiz" asari chuqur falsafiy mazmundagi asardir. Undagi har bir timsol ramziy ma'noga ega. Dengiz – hayot ramzi. Dengiz doim bir xil bo'lmagani kabi inson hayoti ham qiyinchilik, sinovlarga to'la. Sinovlarni yengish uchun esa insonda qat'iyat va ichki kuch eng muhim omil ekanini Santyagoning ushbu fikrlari isbotlaydi:

"Ammo inson bolasi yengilib, yengilganiga rozi bo'lib ketaverish uchun yaratilmagan,– dedi u. Odamzodni yanchib tashlash mumkin, lekin uni yengib bo'lmaydi".

Chol– hayotdagi har bir inson timsoli. Biz Santyago kabi hayot dengizida suzimiz, ko'plab marlin baliqlariga duch kelamiz va ehtimol, ularni qo'ldan chiqaramiz. Akulalar bilan jang qilib, ularni yengamiz. Santyago bizga shuni isbotlaydiki, hayotda muhimi erishgan narsamizni saqlab qolish emas, yengilmaslik, irodali bo'lish hamda o'zimizni kimgadir isbotlash emas, aksincha ichki "MEN"imiz bilan bo'lgan kurashda g'olib bo'lish, hayotdagi eng muhim maqsaddir.

Asardagi marlin balig'i insonning o'z oldiga qo'ygan maqsadi ramzi hisoblanadi. Qahramonning qari obraz ekanidan anglashiladiki, inson qaysi yoshda bo'lishidan qat'i nazar oldiga katta maqsad qo'ya olishi va bu maqsadga erishish uchun o'zidagi barcha imkoniyatlarni ishga solishda o'zida kuch topa olishi lozim.

Akulalar– sinovlar ramzi. Inson intilgan narsasiga erishish yo'li bir tekis emas, qiyinchiliklar bo'lishi tabiiy. Ularni yengib o'tishda ichki kuch jismoniy kuchdan muhim ekanligi cholning akulalar bilan bo'lgan kurashida yaqqol namoyon bo'ladi.

Asardagi yana bir timsol – qayiq. Chol ulkan balig'idan ayrildi, biroq u yolg'iz akulalar bilan kurashib ularni yengdi va unda hali imkon bor. Shu vaziyatda u faqatgina qayig'ini uyga yetkazishni o'ylaydi:

"Endi unga hamma narsa baribir bo'lib qolgan, faqat qayiqni jonajon sohilga tezroq ham omon-esson yetkizsa bo'lgani edi".

Bundan ko'rinadiki, qayiqni inson umriga qiyoslashimiz mumkin. Hayotda g'olib bo'lish eng muhimi emas, asosiysi, yana umid qilish va to'xtamaslikdir.

Asardagi har bir timsol, tasvir vositalari, nafaqat uning badiiy estetik qiymatini oshirish, balki undagi haqiqatni anglash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Asardagi metafora, antiteza, jonlantirish vositalari va ramzlar orqali muallif insonning hayot, tabiat bilan bog'liq munosabatlarini yoritib beradi. Inson ruhiyatidagi doimiy o'zgarish, ichki kurashlar Santyago misolida ko'rsatiladi.

Asarda tashqi tomondan oddiy bir baliqchining hayoti tasvirlangan. Biroq uning yillar silsilasidan o'tib, turli tahlillarga yuzlashayotgani bu fikrni inkor qiladi. "Chol va dengiz"ni turli

yo‘sinda tahlil qilish mumkin. Biroq bularning barchasi ham uzoq va murakkab jarayondir. Asarning dolzarbligi ham unda anglash murakkab bo‘lgan jamiki hayot haqiqating mavjudligidir. “Chol va dengiz” chuqur falsafiy mohiyatga ega asar bo‘lib, uning hayotni, o‘zlikni anglashga doir ahamiyatini muallifning o‘zi ham tasdiqlaydi:

"Oldinlari undagi ramzlar oldindan o‘ylab topilib, ichiga joylangan hech bir yaxshi kitob yozilmagan... Men haqiqiy chol, haqiqiy bola, haqiqiy dengiz, haqiqiy baliq va haqiqiy akula yaratishga harakat qildim. Agar men ularni yetarlicha yaxshi va rostgo‘y qilgan bo‘lsam, ular ko‘p narsani anglatishi mumkin".

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ernest Xeminguey, “Chol va dengiz. Alvido, qurol”. “Yoshlar matbuoti”, 2022-yil.
2. Abdulla Ulug‘ov, “Adabiyotshunoslik nazariyasi”. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2017.
3. To‘xta Boboyev, “Adabiyotshunoslik asoslari”. Toshkent – “O‘zbekiston” – 2002.
4. www.wikipedia.org
5. docx.uz
6. www.nobelprize.org